

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVI.....	9
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
РОЛЬ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В СИСТЕМЕ ФИНАНСОВОГО КРИЗИС-МЕНЕДЖМЕНТА ПРЕДПРИЯТИЯ.....	14
Маннапова Раъно Абборовна	
METROPOLITEN SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL METODOLOGIK MODELİ	22
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
INVESTMENT COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA: CHALLENGES AND PROSPECTS ..	29
Liu Qing	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI: MARKAZIY BANK VA UNING VAZIFALARINING IQTISODIY ASOSI.....	36
Sherkulova N.B., Fayzullayeva Maxliyo	
MINTAQAVIY IQTISODIYOT: MUAMMOLAR VA XALQARO TAJRIBA.....	41
Yorqin Xudoyberdiev	
BIZNES SUBYEKTLARINING EKSPORT FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	45
Karamatdinova Aysawle Paraxatovna	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PDCA TAMOIYILIGA ASOSLANGAN 7 BOSQICHLI TAKOMILLASHTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	53
Xojiyev Ma'murjon Muxsinjon o'g'li	
HUDUDIY SPORT-SO'G'LOMLASHTIRISH TURIZMINING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR..	62
Misirxonov Habibxon Iskandar o'g'li	
TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV MODELINI TAKOMILLASHTIRISH	71
Abdukarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi	
QALMOQIR KONI MIS-MOLIBDEN RUDASINING GRANULOMETRIK TARKIBI VA METALLARNING YIRIKLIK SINFLARI BO'YICHA TAQSIMLANISHINI TAHLIL QILISH	78
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
VELOCITY CALCULATION AND ANALYSIS OF MANIPULATOR MOTION BASED ON THE DIFFERENTIAL APPROACH	83
Egamberdiev Azimjon, Djuraev Sherzod	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARINI BAHOLASH.....	88
Tojiyev Sa'dulla Muhitdinovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK BARQAROR RIVOJLANISHINI EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ORQALI TA'MINLASH.....	93
Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich	
MILLIY TURIZM EKOTIZIMINI XALQARO RAQAMLI PLATFORMALARGA INTEGRATSIYA QILISHNING STRATEGIK MEXANIZMLARI.....	101
Temirov E.I.	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH	109
Mutorov Ilhom Avazjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	116
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich	



ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	121
Худайбердиева Камила, Абдурахманова Мунаввар	
СОВРЕМЕННЫЕ ИСТОЧНИКИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ИХ ДОСТУПНОСТИ	127
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ	138
Ташмухамедова Карима Саматовна	
ИНТЕГРАЦИЯ ОЦЕНКИ КОРПОРАТИВНОГО РИСК-МЕНЕДЖМЕНТА В ИНДЕКС КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	143
Маманазаров Ойбек, Аблаева Валентина	
TURIZMDA PROFESSIONAL TA'LIM VA O'QITISH (VET) TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTLARI UCHUN SINGAPUR VA AVSTRALIYA TAJRIBASI.....	150
Abdullabekova Noilaxon G'ofurjon qizi	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI CAMELS TIZIMIDA BAHOLASHNING NAZARIY VA METODOLOGIK TADQIQI	156
Safaraliyev Basir Norboyevich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH MEKANIZMI VA TRANSFORMATSIYA NATIJADORLIGINI BAHOLASH	162
Vafiyev Raxim Xalimjonovich	
JINCHAN REAGENTI YORDAMIDA KVARSLI-PIRIT KONSENTRATIDAN OLTINNI TANLAB ERITIB AJRATIB Olish.....	169
Rahmonova Umida, Xasanov Abdurashid, Saidahmedov Aktam	
QALMOQQIR MIS-MOLIBDEN RUDALARI MINERALLARINING OCHILISH DARAJASINI BAHOLASH VA BOYITISH TEXNOLOGIYASINI ASOSLASH.....	174
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
ФАКТОРЫ МОЛОДЕЖНОЙ БЕЗРАБОТИЦЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ, МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ	179
Мусаева Шоира, Усмонова Дилфуза	
QARZ KAPITALI ASOSIDA LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH) AMALIYOTINING AHAMIYATI	183
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
ANGREN VA YANGI ANGREN IESLARINING KUL-SHLAK AG'DARMALARI TEXNOLOGIK NAMUNALARNING MODDIY TARKIBINI O'RGANISH	189
Almatov Ilxomjon, Xatamov G'ayrat, Jabborov Ergash, Sodiqov Farrux	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIVAVIY NATIJALAR HISOB METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI	195
Bekchanov Faxriddin Atabekovich	
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI O'RNI	200
Safaraliyev Suyun Sheraliyevich	
RESEARCH AND DESIGN OF ANAEROBIC REACTORS FOR EFFECTIVE FERMENTATION OF AGRICULTURAL RESIDUE	204
Dilbar Ramazonova	
"TARMOQLARDAN FOYDALANISH" BOBINI O'QITISHDA MUALLIFLIK TA'LIM PLATFORMASIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	209
Allaberganova Muyassar, Po'lotova Sevinchov	
RAQAMLI MARKETING PLATFORMALAR ASOSIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI	216
Pirmatov Oybek Shovkat o'g'li	



TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH JARAYONLARINING AMALDAGI HOLATI	223
Yuldashev Xurshidbek Mamirjonovich	
ELEKTRON SAVDO PLATFORMALARIDA MOLIVAVIY TAHLIL AMALIYOTINING MUAMMOLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	232
Amanqulova Muxlisa Narsafar qizi	
SURXONDARYODA YASHIL TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	240
Mamatov Sardor, Rashidova Nargiza	
XORIJIY MAMLAKATLARDA UY-JOY NARXLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI BAHOLASH TAJRIBASI... ..	246
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
TOMORQA XO'JALIKLARI FAOLIYATIDAN KELADIGAN DAROMADLARNI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING ROLI	252
U.U. Nurullayev	
ECONOMIC EFFICIENCY OF IMPLEMENTING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN WAREHOUSE OPERATIONS.....	257
Abdulazizova Shakhriyoda Azizbek kizi	
IXTISOSLASHUV VA KONSENTRATSIYANI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA SUT MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNING SAMARADORLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	262
Sherbekova Ariuxan Rashidovna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI KAPITAL TARKIBINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIALASHTIRISH IMKONIYATLARIGA TA'SIRI TAHLILI.....	266
Jumaniyazova Feruza Rajabovna	
ОПТИМИЗАЦИЯ РЕЖИМОВ ВЫРАБОТКИ КИСЛОРОДА И СЖАТОГО ВОЗДУХА ДЛЯ СНИЖЕНИЯ ЭНЕРГОЁМКОСТИ ПРОИЗВОДСТВА ЧЕРНОВОЙ МЕДИ.....	271
T.C. Kamalov, X.T. Tashva, D.A. Ishanova, U.I. Ablyayev	
SOLIQ SIYOSATINING INVESTITSION FAOLLIKKA TA'SIRI.....	279
Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Zarif Oripovich Axrorov	
SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI OMMALASHTIRISH VA JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	284
Seitnazarov Baxadir Muratbaevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA MOLIVAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH VA RISKLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	291
Tuopova Nigora Xolmurod qizi	
VIRTUAL REALLIK SAHNALARIDA KO'P ISHTIROKCHILI HOLISTIK HARAKATNI REAL VAQT REJIMIDA KUZATISH VA KO'P AGENTLI SKELETNI RETARGETING QILISH.....	297
Abdusamatov Abdurasul Abduqahhor o'g'li	
O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORIDA FINTEX VOSITALARIDAN FOYDALANISH VA INVESTITSIYA FAOLLIGI.....	304
Karimova Nurjahan Olim qizi	
MAHALLIY AMALIYOTDA MOLIVAVIY..... HISOBOTNI SOXTALASHTIRISHNING ENG KENG TARQALGAN SHAKLLARINI TAHLIL QILISH	311
Xusanov Shuxrat Burxanovich	
TIJORAT BANKLARIDA XALQARO PUL O'TKAZMALARI BILAN BOG'LIQ MOLIVAVIY RISKLARNI BAHOLASH YO'LLARI.....	318
Eshmamatov Davlat Nuriddinovich	

TIJORAT BANKLARIDA XALQARO PUL O'TKAZMALARI BILAN BOG'LIQ MOLIYAVIY RISKLARNI BAHOLASH YO'LLARI

Eshmamatov Davlat Nuriddinovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Abstract. This article examines the economic nature, determinants, and assessment methods of financial risks associated with international money transfers in commercial banks. The digitalisation of international transfers, diversification of payment channels, and increasing speed of transactions strengthen the need to improve traditional bank risk-assessment mechanisms. The research applies classical risk-assessment methods, including expert assessment, risk matrices, scoring, and weighted integral assessment. An integrated approach is proposed for evaluating international money-transfer risks through customer risk, geographical risk, transaction risk, operational channel risk, and identification and information risk. As a result, an integral risk indicator and criteria for classifying transactions into low, medium, high, and very high-risk groups are developed. The proposed approach can contribute to the early identification of risks associated with international money transfers, improvement of internal banking controls, and application of differentiated measures to higher-risk transactions.

Keywords: commercial bank, international money transfer, financial risk, risk assessment, risk matrix, risk scoring, geographical risk, transaction risk, customer risk.

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalari bilan bog'liq moliyaviy risklarning iqtisodiy mazmuni, ularning yuzaga kelish omillari hamda baholash usullari tadqiq etilgan. Xalqaro pul o'tkazmalarining raqamlashtirilishi, to'lov kanallarining diversifikatsiyalashuvi va transaksiyalar tezligining oshishi banklarda risklarni aniqlash va baholashning an'anaviy mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda. Tadqiqotda klassik risk baholash usullari, xususan, ekspert baholash, risk matritsasi, balli baholash va vaznlashtirilgan integral baholash usullaridan foydalanilgan. Xalqaro pul o'tkazmalari riskini mijoz riski, geografik risk, tranzaksiya riski, operatsion kanal riski hamda identifikatsiya va axborot riski orqali kompleks baholash usuli taklif etilgan. Tadqiqot natijasida xalqaro pul o'tkazmalarining risk darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi integral ko'rsatkich va risklarni past, o'rta, yuqori hamda juda yuqori guruhlariga ajratish mezonlari ishlab chiqilgan. Taklif etilgan yondashuv tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalari bilan bog'liq risklarni erta aniqlash, bank nazorati samaradorligini oshirish va yuqori riskli operatsiyalarga nisbatan tabaqalashtirilgan nazorat choralarini belgilash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: tijorat banki, xalqaro pul o'tkazmalari, moliyaviy risk, risklarni baholash, risk matritsasi, risk-scoring, geografik risk, tranzaksiya riski, mijoz riski, moliyaviy monitoring.

Аннотация. В данной статье исследованы экономическая сущность финансовых рисков, связанных с международными денежными переводами в коммерческих банках, факторы их возникновения, а также методы их оценки. Цифровизация международных денежных переводов, диверсификация платёжных каналов и увеличение скорости осуществления транзакций усиливают необходимость совершенствования традиционных механизмов выявления и оценки рисков в банках. В исследовании использованы классические методы оценки рисков, в частности экспертная оценка, матрица рисков, балльная оценка и метод взвешенной интегральной оценки. Предложен комплексный подход к оценке рисков международных денежных переводов на основе риска клиента, географического риска, транзакционного риска, риска операционного канала, а также идентификационного и информационного риска. В результате исследования разработаны интегральный показатель, позволяющий определить уровень риска международных денежных переводов, а также критерии классификации рисков на низкий, средний, высокий и очень высокий уровни. Предложенный подход позволяет коммерческим банкам своевременно выявлять риски, связанные с международными денежными переводами, повышать эффективность банковского контроля и применять дифференцированные меры контроля в отношении операций с повышенным уровнем риска.

Ключевые слова: коммерческий банк, международные денежные переводы, финансовый риск, оценка рисков, матрица рисков, риск-скоринг, географический риск, транзакционный риск, риск клиента, финансовый мониторинг.



KIRISH

Jahon moliya tizimida to'lov infratuzilmasining raqamlashtirilishi xalqaro pul o'tkazmalarini amalga oshirish tezligi va qulayligini oshirish bilan bir qatorda, tijorat banklarida ushbu operatsiyalar bilan bog'liq risklarni aniqlash va baholash masalasining ahamiyatini ham oshirmoqda. Zamonaviy to'lov tizimlarida xalqaro pul o'tkazmasi bir nechta moliyaviy institutlar, turli yurisdiksiyalar va elektron axborot tizimlari ishtirokida amalga oshirilishi mumkin. Shu sababli bunday operatsiyalar bo'yicha riskni faqat o'tkazma summasi yoki mijozning ayrim ko'rsatkichlari orqali baholash yetarli bo'lmay qolmoqda.

FATF tomonidan riskka asoslangan yondashuv bank sektorida jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish risklarini aniqlash, baholash va tushunish hamda resurslarni risk darajasiga mutanosib ravishda yo'naltirishning asosiy tamoyili sifatida belgilangan. FATF — Financial Action Task Force — jinoiy daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro standartlarni ishlab chiquvchi hukumatlararo tashkilotdir.

Xalqaro to'lovlarning shaffofligi masalasi so'nggi yillarda yanada dolzarb tus oldi. FATF 2025-yil iyun oyida Recommendation 16 talablarini yangilab, xalqaro to'lovlarda jo'natuvchi va oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlarning aniqligi va to'lov zanjiri bo'ylab uzatilishini takomillashtirishga qaratilgan yangi talablarni qabul qildi. Amaldagi FATF tavsiyalari 2026-yil iyun holatiga ko'ra yangilangan bo'lib, riskka asoslangan yondashuv xalqaro AML/CFT tizimining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib qolmoqda [1].

O'zbekistonda ham tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalarini nazorat qilish mexanizmlari bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. Mazkur o'zgartirishlarda xalqaro va ichki pul o'tkazmalarida jo'natuvchi hamda oluvchi haqidagi identifikatsion ma'lumotlarning to'liqligi, operatsiyani kuzatib borish imkonini beruvchi hisobvaraqlar yoki xos raqamning mavjudligi kabi talablar aniqlashtirilgan. Shu bilan birga, xalqaro paketli o'tkazmalar bo'yicha ham alohida talablar belgilangan [2].

Bularning barchasi xalqaro pul o'tkazmalari bo'yicha risklarni baholashda kompleks va tabaqalashtirilgan yondashuvni shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarida moliyaviy risklarni aniqlash, baholash va kamaytirish masalalari mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Bank xizmatlarining raqamlashtirilishi, xalqaro hisob-kitoblar va pul o'tkazmalari hajmining ortishi risklarni kompleks baholash zaruratini kuchaytirmoqda.

D.M. Malikova tijorat banklarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda moliyaviy barqarorlik, kapital yetariligi, rentabellik va prudensial ko'rsatkichlarning ahamiyatini ta'kidlaydi [3]. Ushbu yondashuv xalqaro pul o'tkazmalari bilan bog'liq risklarni bankning umumiy moliyaviy holati bilan bog'liq holda baholash zarurligini ko'rsatadi.

M.A. Karimov tijorat banklarida bozor risklarini baholashda ekonometrik va miqdoriy usullardan foydalanishga alohida e'tibor qaratadi [4]. Muallif valyuta kurslarining o'zgaruvchanligi banklarning moliyaviy barqarorligi va rentabelligiga ta'sir qilishini ko'rsatadi. Bu esa xalqaro pul o'tkazmalarida valyuta va geografik risklarni hisobga olish zarurligini asoslaydi.

B.U. Akbarov bankning moliyaviy xavfsizligini likvidlik va moliyaviy barqarorlik bilan bog'laydi [5]. Uning yondashuvi xalqaro pul o'tkazmalarida likvidlik va hisob-kitob risklarini ham kompleks baholash tizimiga kiritish lozimligini ko'rsatadi.

B.M. Alimov raqamli transformatsiya sharoitida bank risklarini boshqarish tizimini takomillashtirish masalalarini tadqiq etgan [6]. Mazkur yondashuv elektron va masofaviy kanallar orqali amalga oshiriladigan xalqaro pul o'tkazmalarida texnologik, operatsion va identifikatsion risklarni hisobga olish zarurligini belgilaydi.

J.L. Saidov bank xizmatlari samaradorligini oshirishda risklarni baholashning muhimligini ta'kidlaydi [7]. Risklarni to'g'ri tasniflash bank xavfsizligini ta'minlash bilan birga, past riskli operatsiyalar uchun ortiqcha nazorat xarajatlarini kamaytirishga ham xizmat qiladi.

Xorijiy tadqiqotchilardan E.A. Islamova va M.I. Lvova tijorat banklaridagi asosiy moliyaviy risklarni kredit, bozor, operatsion va likvidlik risklariga ajratib o'rganadilar [8]. Ular risklarni kamaytirishda diversifikatsiya, xedjirlash, limitlash, monitoring va stress-testlash usullaridan kompleks foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar.

V.V. Porozov bank risklarini baholashda stress-testlash usulining ahamiyatiga e'tibor qaratadi [9]. Muallif risk omillarining bank moliyaviy holatiga ta'sirini ssenariylar asosida baholash, shuningdek, korrelyatsion-regression va ekonometrik tahlildan foydalanishni taklif etadi. Mazkur yondashuv xalqaro pul o'tkazmalarida valyuta kursi, geografik yo'nalish yoki to'lov kanallaridagi o'zgarishlarning ta'sirini baholashda qo'llanishi mumkin.

E. Altman tomonidan ishlab chiqilgan Z-score modeli turli moliyaviy ko'rsatkichlarni vaznlashtirish orqali



yagona integral ko'rsatkichni shakllantirishga asoslanadi [10]. Mazkur metodologik yondashuv xalqaro pul o'tkazmalaridagi turli risk omillarini ham yagona integral baholash tizimiga birlashtirish imkonini beradi.

R. Taffler ham moliyaviy risklarni bir nechta moliyaviy ko'rsatkichlar asosida integral baholashni taklif etadi [11]. Ushbu yondashuv mijoz, geografik, tranzaksiya, to'lov kanali va identifikatsiya risklarini vazn koeffitsiyentlari orqali umumlashtirish uchun metodik asos bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda bank risklarini baholashda miqdoriy tahlil, integral baholash, monitoring va stress-testlash usullariga alohida e'tibor berilgan. Biroq xalqaro pul o'tkazmalariga xos mijoz, geografik, tranzaksiya, operatsion kanal va identifikatsiya risklarini yagona tizimda kompleks baholash masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan.

Amaldagi milliy talablarda ham xalqaro pul o'tkazmalarini amalga oshirishda jo'natuvchi va oluvchi haqidagi ma'lumotlar, operatsiyaning geografiyasi, hajmi, mablag'larning kelib chiqish manbai hamda mijozning moliyaviy profilini tahlil qilish zarurligi belgilangan. Shu sababli mazkur tadqiqotda xalqaro pul o'tkazmalari bilan bog'liq risklarni kompleks baholash va ularni integral ko'rsatkich orqali umumlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli va qiyosiy tahlil, guruhlash, ekspert baholash, balli baholash, risk matritsasi hamda vaznlashtirilgan integral indeks usullaridan foydalaniladi. Tadqiqotning metodologik asosini riskka asoslangan yondashuv tashkil etadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, banklar mavjud risklarni aniqlashi, baholashi va nazorat choralarini risk darajasiga mos ravishda qo'llashi lozim. Xalqaro pul o'tkazmalarini baholashda mijoz riski, geografik risk, tranzaksiya riski, operatsion kanal riski hamda identifikatsiya va axborot riski asosiy omillar sifatida olinadi. Mazkur risklar balli va vaznlashtirilgan usulda baholanib, ularning umumiy darajasi integral ko'rsatkich orqali aniqlanadi, maqola matnini tayyorlash va tahrirlash jarayonida esa sun'iy intellekt vositalaridan 10 foizgacha foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalari bilan bog'liq moliyaviy risklarni baholashda operatsiyaning faqat summasi yoki amalga oshirilish chastotasiga tayanish yetarli emas. Bunday operatsiyalarning risk darajasi mijozning moliyaviy holati, pul o'tkazmasining geografik yo'nalishi, tranzaksiya xususiyatlari, foydalanilayotgan to'lov kanali hamda jo'natuvchi va oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liqligi kabi omillar ta'sirida shakllanadi.

Amaldagi ichki nazorat qoidalarida ham pul o'tkazmalarida jo'natuvchi va oluvchi haqidagi ma'lumotlar, hisobvaraqlar yoki operatsiyaning kuzatish imkonini beruvchi xos raqamning mavjudligiga alohida talablar qo'yilgan. Xalqaro paketli o'tkazmalarda esa jo'natuvchi haqidagi zarur ma'lumotlar bilan bir qatorda, oluvchini qabul qiluvchi mamlakatda to'liq kuzatish imkonini beradigan ma'lumotlarning mavjudligi talab etiladi.

Mazkur talablar xalqaro pul o'tkazmalari risklarini bir nechta omillar asosida kompleks baholash zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot doirasida ushbu risklarni quyidagi besh guruhga ajratish taklif etiladi.

1-jadval

Xalqaro pul o'tkazmalari bilan bog'liq asosiy moliyaviy risklar va ularni baholash mezonlari[®]

Risk turi	Riskning mazmuni	Asosiy baholash mezonlari
Mijoz riski	Mijozning faoliyati va moliyaviy xulq-atvori bilan bog'liq risk	mijoz turi, faoliyat sohasi, moliyaviy profil, oldingi operatsiyalar
Geografik risk	Pul yuborilayotgan yoki kelib tushayotgan mamlakat bilan bog'liq risk	mamlakatning risk darajasi, FATF monitoringi, operatsiya yo'nalishi
Tranzaksiya riski	Pul o'tkazmasining xususiyatlari bilan bog'liq risk	summa, chastota, maqsad, noodatiylik, tranzaksiya zanjiri
Operatsion kanal riski	O'tkazmani amalga oshirish usuli bilan bog'liq risk	masofaviy kanal, bank kartasi, elektron tizim, vositachilar
Identifikatsiya-axborot riski	Jo'natuvchi va oluvchi haqidagi ma'lumotlarning yetariligi bilan bog'liq risk	identifikatsiya ma'lumotlari, hisobvaraqlar, operatsiya xos raqami



Xalqaro pul o'tkazmalarida mijoz riski operatsiyaning mijozning odatiy faoliyati va moliyaviy imkoniyatlariga qanchalik mos kelishi orqali baholanadi. Masalan, ilgari kichik hajmdagi mahalliy operatsiyalarni amalga oshirib kelgan mijoz tomonidan qisqa muddat ichida yirik xalqaro pul o'tkazmalarining amalga oshirilishi uning risk darajasini oshiruvchi omil bo'lishi mumkin.

Amaldagi qoidalarga ko'ra, shubhali operatsiyalarni kompleks tahlil qilishda operatsiyaning mijozning odatiy xo'jalik faoliyati va moliyaviy profiliga muvofiqligi, shuningdek, ilgari amalga oshirilgan operatsiyalari hisobga olinishi lozim.

Shu sababli mijoz riskini baholashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish taklif etiladi: mijozning bankdagi faoliyat davri, o'rtacha oylik pul aylanmasi, xalqaro operatsiyalar chastotasi, daromad manbalarining aniqligi hamda joriy operatsiyaning tarixiy moliyaviy profiliga muvofiqligi.

Xalqaro pul o'tkazmalarida geografik omil alohida ahamiyat kasb etadi. Pul mablag'lari yuqori riskli yoki kuchaytirilgan monitoring ostidagi davlatlarga yuborilganda yoxud bunday hududlardan kelib tushganda, operatsiyaning umumiy risk darajasi oshishi mumkin.

Milliy qoidalarga FATF tomonidan yuqori xavfli hamda kuchaytirilgan monitoring ostidagi davlatlar va hududlarni hisobga olishga doir normalar kiritilgan. Shu sababli geografik riskni xalqaro pul o'tkazmalarini baholash tizimining mustaqil elementi sifatida kiritish maqsadga muvofiq.

Geografik riskni shartli ravishda quyidagicha baholash mumkin:

2-jadval

Xalqaro pul o'tkazmalarida geografik risk darajasini balli baholash mezonlari [1]

Holat	Ball
Past riskli mamlakat	1
Nisbatan past riskli mamlakat	2
O'rta riskli mamlakat	3
Kuchaytirilgan monitoringdagi mamlakat	4
Yuqori xavfli mamlakat yoki hudud	5

Bunday baholash bankka xalqaro pul o'tkazmalarining geografik yo'nalishini miqdoriy ko'rsatkichga aylantirish imkonini beradi.

Tranzaksiya riski pul o'tkazmasining summasi, davriyligi, iqtisodiy maqsadi va mijozning odatiy operatsiyalaridan og'ish darajasi bilan belgilanadi.

Amaldagi tartibda kompleks tahlil jarayonida pul mablag'larining kelib chiqish manbasi, operatsiya tuzilishi, geografiyasi, vaqti va hajmini tahlil qilish, shuningdek, murakkab yoki ko'p bosqichli tranzaksiya zanjirlarini o'rganish talab etilgan.

Shundan kelib chiqib, tranzaksiya riskini oshiruvchi asosiy belgilar sifatida quyidagilarni ajratish mumkin: qisqa muddatda ko'p marotaba pul o'tkazilishi; o'tkazma summasining mijozning odatiy aylanmasidan sezilarli darajada yuqoriligi; operatsiya maqsadining iqtisodiy jihatdan yetarli asoslanmaganligi; mablag'larning ko'plab oluvchilarga bo'lib yuborilishi; murakkab tranzaksiya zanjirlarining shakllanishi.

Qoidalarining yangi tahririda bank kartalari va elektron hamyonlar orqali qisqa muddatda yirik hajmdagi takroriy pul o'tkazmalarining alohida nazorat qilinishi ham tranzaksiya summasi va chastotasining muhim risk indikatorini ekanligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi risklarni yagona tizimda baholash maqsadida har bir risk omiliga 1 dan 5 gacha ball berish taklif etiladi:

- 1 ball — juda past risk;
- 2 ball — past risk;
- 3 ball — o'rta risk;
- 4 ball — yuqori risk;
- 5 ball — juda yuqori risk.

Bunda barcha risk omillarini oddiy yig'ishdan ko'ra, ularning ahamiyatini hisobga oluvchi vaznlashtirilgan baholash usulidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot doirasida xalqaro pul o'tkazmasining integral risk darajasini quyidagi formula orqali aniqlash taklif etiladi:

$$IR=0,20M+0,25G+0,25T+0,15O+0,15I$$

bu yerda: IR - integral risk ko'rsatkichi; M - mijoz riski; G - geografik risk; T - tranzaksiya riski; O - operatsion

kanal riski; I - identifikatsiya-axborot riski.

Geografik va tranzaksiya risklariga 0,25 dan yuqoriroq vazn berilishi xalqaro pul o'tkazmalarida aynan operatsiyaning yo'nalishi va xususiyatlari risk darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi bilan izohlanadi. Ushbu vazn koeffitsiyentlari mualliflik taklifi bo'lib, tijorat banklarining real statistik ma'lumotlari asosida keyinchalik aniqlashtirilishi mumkin.

Shunday qilib, amalga oshirilgan tahlil xalqaro pul o'tkazmalari riskini faqat bitta indikator asosida emas, balki mijoz, geografik yo'nalish, tranzaksiya xususiyati, to'lov kanali va identifikatsion ma'lumotlarni birgalikda hisobga olgan holda baholash maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Taklif etilayotgan integral baholash usuli banklarda yuqori riskli operatsiyalarni aniqlash va nazorat choralari risk darajasiga muvofiq tabaqalashtirish imkonini beradi.

Tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalari bilan bog'liq risklarni baholashda bank tomonidan foydalanilayotgan pul o'tkazmalari tizimlari, ularning operatsiyalar hajmidagi ulushi, geografik qamrovi va xizmat ko'rsatish kanallari muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, "Mikrokreditbank" ATB (MKBANK) faoliyati misolida xalqaro pul o'tkazmalarini tahlil qilish mazkur risklarning amaliy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

MKBANKning rasmiy ma'lumotlarida PayPorter, UPT, Zolotaya Korona, KWIKPAY, Astrasend, Asia Express, MoneyGram, RIA va Western Union xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari orqali pul yuborish va qabul qilish imkoniyati mavjudligi ko'rsatilgan. Bankning joriy pul o'tkazmalari katalogida esa ushbu xizmatlar qatoriga BEST, Olma Pay va UCASH kabi yangi xizmatlar ham qo'shilgan. Bu holat bankning xalqaro pul o'tkazmalari infratuzilmasi bosqichma-bosqich diversifikatsiyalanayotganini ko'rsatadi.

Quyida keltirilgan 4-jadval ma'lumotlari MKBANK orqali to'lab berilgan xalqaro pul o'tkazmalarining asosiy qismi Zolotaya Korona tizimiga to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Uning jami hajmdagi ulushi 62,57 foizni tashkil etgan. Keyingi o'rinlarda KWIKPAY — 11,40 foiz va Asia Express — 10,71 foiz ulushga ega. Mazkur uchta tizimning jami ulushi 84,69 foizni tashkil etadi.

Bu natija xalqaro pul o'tkazmalari portfelida ma'lum darajada operatsiyalar konsentratsiyasi mavjudligini ko'rsatadi. Biroq yuqori ulushning o'zi mazkur tizimlar "yuqori riskli" degan xulosani anglatmaydi. Ilmiy nuqtai nazardan, katta hajmdagi operatsiyalar amalga oshiriladigan tizimlarga nisbatan tranzaksiyalar monitoringi, identifikatsiya ma'lumotlarining to'liqligi va operatsiyalarning mijoz moliyaviy profiliga mosligi bo'yicha nazoratning ahamiyati yuqoriroq bo'lishi mumkin.

3-jadval

MKBANKda 2025-yil II chorakda to'lab berilgan xalqaro pul o'tkazmalarining tarkibi [1]

Pul o'tkazmalari tizimi	To'lab berilgan summa*	Jami hajmdagi ulushi, %
Zolotaya Korona	61 909 674,73	62,57
KWIKPAY	11 283 976,68	11,40
Asia Express	10 593 889,00	10,71
Astrasend	5 691 069,54	5,75
Western Union	4 834 884,04	4,89
UPT	2 038 184,38	2,06
MoneyGram	1 435 681,40	1,45
RIA Money Transfer	1 151 132,34	1,16
PayPorter	1 500,00	0,002
Jami	98 939 992,11	100,0

MKBANK ma'lumotlari asosidagi tahlil xalqaro pul o'tkazmalarida risk darajasining birgina tranzaksiya summasi bilan belgilanmasligini ko'rsatadi. Pul o'tkazmalari tizimlarining soni va geografik qamrovining kengayishi, mobil kanallarning rivojlanishi hamda ayrim tizimlarda operatsiyalar hajmining yuqori konsentratsiyasi risklarni ko'p omilli baholash usulini qo'llashni talab qiladi.

Shu sababli MKBANK misolida xalqaro pul o'tkazmalari riskini baholashda avval ishlab chiqilgan beshta komponent — mijoz riski, geografik risk, tranzaksiya riski, to'lov kanali riski va identifikatsion-axborot riski — bo'yicha integral baholash modelidan foydalanish asosli hisoblanadi.

MKBANK foydalanayotgan xalqaro to'lov tizimlari geografik qamrov jihatidan sezilarli darajada farqlanadi. Masalan, Western Union tarmog'i 200 dan ortiq mamlakat va hududlarni qamrab oladi, MoneyGram 190 mamlakatda xizmat ko'rsatadi, RIA Money Transfer esa 140 dan ortiq mamlakatga pul yuborish va qabul qilish imkoniyatini taqdim etadi. PayPorter bo'yicha bank saytida 200 dan ortiq davlatga pul o'tkazish imkoniyati



mavjudligi qayd etilgan.

Ayrim tizimlar esa nisbatan tor geografik yo'nalishga ega. Masalan, Asia Express asosan Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi o'tkazmalarga yo'naltirilgan bo'lib, Rossiyada 1 400 dan ortiq va O'zbekistonda 1 000 dan ortiq xizmat ko'rsatish punktlariga ega. Astrasend esa Rossiya, O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston va Mongoliyada faoliyat yuritadi.

Mazkur holat xalqaro pul o'tkazmalarini baholashda geografik riskni faqat pul o'tkazmalari tizimining nomi orqali emas, balki pul mablag'ining kelib chiqish yoki yo'naltirilish mamlakati bo'yicha alohida aniqlash zarurligini ko'rsatadi. Bir pul o'tkazmalari tizimi orqali turli risk darajasiga ega mamlakatlarga operatsiyalar amalga oshirilishi mumkin.

MKBANK xalqaro pul o'tkazmalarini mobil xizmatlarga integratsiya qilishni ham kengaytirgan. 2026-yil mart holatiga ko'ra, RIA, Astrasend va Asia Express xizmatlari MAVRID mobil ilovasiga ulangan. Keyinchalik UPT orqali yuborilgan xalqaro mablag'larni ham MAVRID orqali bank filialiga bormasdan Visa, Uzcard yoki Humo kartalariga qabul qilish imkoniyati yaratilgan.

Raqamli kanal mijoz uchun vaqt va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishi bilan birga, bank risklarini baholash metodologiyasiga yangi talablarni ham yuzaga keltiradi. Bunda masofaviy identifikatsiya, mijozning tranzaksion xatti-harakati, operatsiyalar chastotasi, pul o'tkazmasining geografik yo'nalishi va karta bilan bog'liq operatsiyalarni kompleks kuzatish muhim ahamiyat kasb etadi.

4-jadval

“Mikrokreditbank” ATB misolida risk omillarining umumlashtirilgan bahosi [1]

Risk yo'nalishi	MKBANK dagi kuzatilgan holat	Tahliliy xulosa
Mijoz riski	Filial va mobil kanallar orqali operatsiyalar mavjud	mijoz profiliga moslikni baholash zarur
Geografik risk	140–200 dan ortiq mamlakatlarni qamrab oluvchi tizimlar mavjud	mamlakatlar riskini differensial baholash talab etiladi
Tranzaksion risk	Xalqaro pul o'tkazmalarining hajmi tizimlar bo'yicha sezilarli farqlanadi	summa va chastotani mijoz tarixi bilan solishtirish zarur
To'lov kanali riski	MAVRID orqali masofaviy xizmatlar kengaymoqda	raqamli kanal bo'yicha monitoring ahamiyati oshadi
Konsentratsiya riski	To'lab berilgan mablag'larning 62,57%i bitta tizimga to'g'ri kelgan	yuqori hajmli tizimlarga alohida monitoring zarur
Identifikatsion risk	Naqd, karta va mobil kanallardan foydalaniladi	jo'natuvchi va oluvchi ma'lumotlarining to'liqligini nazorat qilish muhim

MKBANKda MAVRID xizmatlarining 24/7 rejimida ishlashi ham qayd etilgan. Bu mijozlar uchun xizmatlarning uzluksizligini oshiradi, biroq nazorat tizimlarining ham operatsiyalar vaqtiga bog'liq bo'lmagan holda samarali ishlashini talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pul o'tkazmalari tizimlarining ko'pligi, ularning geografik qamrovi, raqamli kanallarning kengayishi va ayrim tizimlarda operatsiyalar hajmining yuqori ulushi risklarni faqat tranzaksiya summasi asosida baholash yetarli emasligini anglatadi. Shu sababli mijoz, geografik, tranzaksiya, to'lov kanali va identifikatsion-axborot risklarini yagona tizimda baholash maqsadga muvofiq. Taklif etilgan integral yondashuv tijorat banklarida yuqori riskli xalqaro pul o'tkazmalarini erta aniqlash va nazorat choralarini risk darajasiga mos ravishda belgilash imkonini beradi.

Tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalarini baholashda mijoz, geografik, tranzaksiya, to'lov kanali va identifikatsion risklarni kompleks hisobga olish lozim. Risklarni balli va integral baholash tizimini bank amaliyotiga joriy etish maqsadga muvofiq. Yuqori riskli operatsiyalar bo'yicha kuchaytirilgan nazorat va doimiy monitoring mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Xalqaro pul o'tkazmalarida mamlakatlar va to'lov kanallari bo'yicha risk darajasini muntazam ravishda qayta baholab borish lozim. Mijozning joriy operatsiyalarini uning tarixiy moliyaviy profili bilan avtomatik taqqoslash tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Risk indikatorlarini bankning real tranzaksiya ma'lumotlari asosida davriy ravishda yangilab borish tavsiya etiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. **Financial Action Task Force (FATF).** FATF Updates Standards on Recommendation 16 on Payment Transparency [Elektron resurs]. – Paris: FATF, 2025. – 18 June. – Murojaat sanasi: 11.08.2026.
2. **O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.** Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2026-yil 16-apreldagi 343-B-14-son va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining 2026-yil 15-apreldagi 16-son qarori. – 2026-yil 8-mayda 2886-12-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.
3. **Malikova D.M.** Tijorat banklari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ilmiy asoslarini takomillashtirish: 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 59 b.
4. **Karimov M.A.** Tijorat banklarida bozor risklarini baholash va boshqarishni takomillashtirish: 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025. – 62 b.
5. **Akbarov B.U.** Tijorat banklari moliyaviy xavfsizligini ta'minlash amaliyotini takomillashtirish: 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 58 b.
6. **Alimov B.M.** Raqamli transformatsiyalash sharoitida bank risklari boshqarishni takomillashtirish: 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya; 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit tutash ixtisosliklari bo'yicha iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2026. – 61 b.
7. **Saidov J.L.** Bank sohasida risklarni baholash asosida xizmatlar samaradorligini oshirish: 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2025.
8. **Исламова Е.А., Львова М.И.** Управление финансовыми рисками коммерческих банков // Актуальные проблемы экономики и управления: сборник научных статей Одиннадцатой Всероссийской научно-практической конференции с международным участием (Екатеринбург, 19–20 октября 2023 г.) / отв. ред. Л.А. Мочалова, В.Н. Подкорытов. – Екатеринбург: Изд-во УГГУ, 2023. – С. 120–125.
9. **Порозов В.В.** Исследование влияния факторов риска на финансовую устойчивость коммерческих банков: магистерская диссертация / науч. рук. Е.Г. Шершнева; Уральский федеральный университет имени первого Президента России Б.Н. Ельцина. – Екатеринбург, 2022. – 117 с.
10. **Altman E.I.** Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy // The Journal of Finance. – 1968. – Vol. 23, No. 4. – P. 589–609. – DOI: 10.1111/j.1540-6261.1968.tb00843.x.
11. **Taffler R.J.** The Assessment of Company Solvency and Performance Using a Statistical Model // Accounting and Business Research. – 1983. – Vol. 13, No. 52. – P. 295–308. – DOI: 10.1080/00014788.1983.9729767.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100